



TALABALARNING KASBIY ETNOMADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI NAZARIYASI

Gubenova Gozzal Turganbayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

1-kurs mustaqil tadqiqotchisi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10390975>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2023

Accepted: 14th December 2023

Online: 15th December 2023

KEY WORDS

Etnomadaniyat, talabalar,
kasbiy etnomadaniyat,
kompetentlik, nazariyasi, etnik
xususiyat, mexanizmlar,
madaniyat, shakllantirish,
etnogenez.

ABSTRACT

Har bir fan dastlab fakt va raqamlarni to'playdi, keyin ularning mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Talabalarning kasbiy etnomadaniyat bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning paydo bo'lishi, zarur ma'lumotlar to'planishi, faktlar anglab olinishi bir vaqtda sodir bo'ladi. Masalan, ayrim qo'shni qabila, xalq va elatlarning maishiy turmushi, madaniyati, urf-odatlar, etnik xususiyatlarini o'rganish, ularni aniq tushunish amaliy ehtiyojlarni qondirish taqozosi bilan vujudga kelgan. Ushbu tezida, talabalarning kasbiy etnomadaniy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari nazariyasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Eng qadimgi sharq mamlakatlarida uzoq-yaqin qo'shnilar bilan samarali savdo-sotiq munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, ularga qarshi muvaffaqiyatli yurushlar olib borish uchun ham, birinchi navbatda etnologik bilimlarga ega bo'lish zarur edi. Sharq mustabidlari, ayniqsa, Qadimgi Bobil, Ossuriya va Eron hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bittirgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'ysundirilgan turli elat va xalqlar tilga olinadi. Qadimgi Gretsiya va Rim mualliflarining asarlarida qo'shni qabilalar va elatlarning etnik tuzilishi, turmushi va madaniyati to'g'risida umumiy ma'lumotlar bilan bir qatorda ba'zi nazariy tushunchalar va fikrlar ham keltiriladi.

Odatda etnologiya (etnografiya) mustaqil fan sifatida XIX o'rtalarida tashkil topgan, deb hisoblaydilar. Mazkur atama o'sha davrdan boshlab ancha muntazam ravishda ishlatila boshlandi, dastlabki etnografik ilmiy jamiyatlar, maxsus asarlar va to'plamlar paydo bo'ldi. Yangi fanning tashkil topishida, shubhasiz, o'sha davrda tabiiy fanlarning gurkirab o'sishi, ayniqsa, fanda evolyutsiya g'oyaning g'alabasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu g'oya tufayli tartibsiz bilimlar, barcha xom, tarqoq ma'lumotlar muayyan tartibga solindi va insoniyat tarixining ibtidoiy davrdan to'yuksak madaniy darajaga ko'tarilishini pog'onama-pog'ona aniqlab olish imkoniyati tug'ildi.

Zamonaviy etnologiyasida etnosning ikkita tubdan farq qiladigan nazariyalari mavjud. Ulardan birining muallifi L.N. Gumilyov bo'lib, u etnosni tabiiy, biologik hodisa deb hisoblaydi. Gumilyovning fikricha, etnos u yoki bu ijtimoiy qobiqda kiyingan biofizik voqelik, u biologik



xususiyatdir. Etnos - uni oziqlantiruvchi va o'rab turgan landshaft bilan bog'liq bo'lgan geografik hodisa. Shu bilan birga, inson ham sayyoramiz biosferasining bir qismidir. Inson o'z faoliyati bilan biosferaning o'zini o'zi boshqarishning sinchkovlik bilan sozlangan mexanizmlarini buzadi va uning hayoti sharoitida kutilayotgan yaxshilanish o'rniga u ekologik halokatga duch kelishi mumkin. Bunday ekologik inqirozning boshlanishi etnik guruhlarining nobud bo'lishining sabablaridan biridir.

Talabalarining kasbiy etnomadaniy kompetentsiyani rivojlantirish nazariyasi shaxslar turli madaniyatlarga mansub odamlarni tushunish, qadrlash va ular bilan samarali muloqot qilish uchun ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishlari mumkinligini taklif qiladi. Ushbu rivojlanish turli madaniyatlarga ta'sir qilish, ta'lim, o'z-o'zini aks ettirish va madaniyatlararo aloqani yaxshilash uchun qasddan qilingan harakatlar orqali sodir bo'ladi. Ushbu nazariyaning maqsadi turli madaniyatlarda o'zaro tushunish, hurmat va hamdardlikni targ'ib qilishdir, bu esa oxir-oqibat munosabatlarni yaxshilashga va guruhlararo uyg'unlikka olib kelishi mumkin.

Har bir fan dastlab fakt raqamlarni to'playdi, keyin ularning mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnografik bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning paydo bo'lishi, zarur ma'lumotlar to'planishi, faktlar anglab olinishi bir vaqtda sodir bo'ladi. Masalan, ayrim qo'shni qabila, xalq va elatlarning maishiy turmushi, madaniyati, urf-odatlar, etnik xususiyatlarini o'rganish, ularni aniq tushunish amaliy ehtiyojlarni qondirish taqozosi bilan vujudga kelgan.

Eng qadimgi sharq mamlakatlarida uzoq-yaqin qo'shnilar bilan samarali savdo-sotiq munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, ularga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish uchun ham, birinchi navbatda etnologik bilimlarga ega bo'lish zarur edi. Sharq mustabidlari, ayniqsa, Qadimgi Bobil, Ossuriya va Eron hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bittirgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'ysundirilgan turli elat va xalqlar tilga olinadi. Qadimgi Gretsiya va Rim mualliflarining asarlarida qo'shni qabilalar va elatlarning etnik tuzilishi, turmushi va madaniyati to'g'risida umumiy ma'lumotlar bilan bir qatorda ba'zi nazariy tushunchalar va fikrlar ham keltiriladi.

Odatda etnologiya (etnografiya) mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida tashkil topgan, deb hisoblaydilar. Mazkur atama o'sha davrdan boshlab ancha muntazam ravishda ishlatila boshlandi, dastlabki etnografik ilmiy jamiyatlar, maxsus asarlar va to'plamlar paydo bo'ldi. Yangi fanning tashkil topishida, shubhasiz, o'sha davrda tabiiy fanlarning gurkirab o'sishi, ayniqsa, fanda evolyutsiya g'oyaning g'alabasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu g'oya tufayli tartibsiz bilimlar, barcha xom, tarqoq ma'lumotlar muayyan tartibga solindi va insoniyat tarixining ibtidoiy davrdan to'yuksak madaniy darajaga ko'tarilishini pog'onama-pog'ona aniqlab olish imkoniyati tug'ildi.

Albatta, «Odam to'g'risidagi fan»ning tez sur'atlar bilan rivojlanishi va etnologiya fanining mustaqil ilm sohasi bo'lib qolishi negizida asrlar davomida to'planib kelgan etnologik bilimlar, jahon xalqlari to'g'risidagi turli ma'lumotlar, har xil tushuncha va nazariyalar yotadi. Bularning tarixini qisman bo'lsa ham bilib olishning o'zi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuv kashf etilgan dastlabki davrdan boshlab o'qishni hamda uzoq xalq va elatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qadimgi Misr, Mesopatamiya va Eronda yaxshi bilganlar, qo'shni elatlar to'g'risida faqat yozma manbalardagina emas, balki xalq og'zaki ijodida ham to'qilgan turli rivoyatlar, hikoyalar va afsonalardan bilib olganlar. Mil. av. XX asrlarda Misrda yaratilgan



«Sinuxeta sarguzashtlari», keyinroq tosh va qabrlarga bitilgan zafaraomalar, Tell-Amarneda topilgan arxiv hujjatlari, qadimgi Shumer va Ossuriya obidalarida-gi yozuvlar, eron-ahmoniy podsholari bittirgan jangovar solnomalar tevarak-atrofdagi mamlakatlar aholisi to'g'risida nodir ma'lumot-larni bizgacha yetkazganlar.

Dunyoda bir necha ming etnik guruhlar yashaydi. Ular bir-biridan soni, ijtimoiy taraqqiyot darajasi, tili va madaniyati, irqiy tashqi ko'rinishi bilan farqlanadi. Turli etnik guruhlarining soni juda katta. Shunday qilib, eng yirik davlatlar soni (xitoylar, amerikaliklar, ruslar, braziliyaliklar.) 100 million kishidan oshadi. Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan mayda etnik guruhlar 10 kishini ham tashkil etmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda etnik guruhlar o'rtasidagi tafovut ham katta ahamiyatga ega. Yaqin atrofda yuqori rivojlangan etnik guruhlar va hali ibtidoiylik bosqichida bo'lganlar birga yashaydilar.

Har bir xalq o'ziga xos tilda gapiradi, garchi bir xil tilni bir nechta etnik guruhlar ishlatasa yoki aksincha, bir etnik guruh bir nechta tillarda gaplashadi. Biroq, ko'plab tillar bir-biri bilan bog'liq. Turli xalqlar madaniyatidagi o'xshashlik va farqlar doirasi ham sezilarli. Assimilyatsiya, konsolidatsiya, integratsiya, aralashish kabi tushunchalar etnosga ham tegishli. Masalan, millatlararo integratsiya - bu qarindoshlik aloqasi bo'lmagan xalqlarning o'zaro ta'siri jarayoni bo'lib, bu jarayonda yangi etnik guruh paydo bo'ladi.

Etnos, shuningdek, maktab, inson muhiti, diniy muassasalar, oila va boshqalar kabi institutlar yordamida yuzaga keladigan ijtimoiylashuv bilan tavsiflanadi. Etnogenez tushunchasi Gumilyov geografik determinizm doirasida ishlab chiqilgan. Uning xalqlar tabiati, urf-odatlar va madaniyatining biosfera bilan odamlar psixologiyasining landshaftlari bilan eng chuqur bog'liqligi haqidagi nazariyasi evrosiyoliklar g'oyalariga yaqin. Etnos sayyoramizning organik dunyosining ajralmas qismidir u ma'lum geografik sharoitlarda paydo bo'ladi. U etnosni birlamchi narsa, biosferaning hodisasi sifatida ko'rib, madaniyatga ikkinchi darajali xususiyatni beradi.

50-yillardan boshlab etnos nazariyasini, shuningdek, madaniy plyuralizmni kontseptuallashtirish sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniy plyuralizm siyosatining o'zgarishi etnos va etnik o'ziga xoslik, millat va millatchilikning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish va baholashda qo'llaniladigan ko'plab nazariy yondashuvlarda o'z aksini topdi: neomarksistik, modernizatsiya, madaniy-plyuralistik, maqom-guruh. , ratsionalistik va boshqalar.

Xulosa. Talabalarining kasbiy etnomadaniy kompetentsiyani rivojlantirish nazariyasi shaxslar turli madaniyatlarga mansub odamlarni tushunish, qadrlash va ular bilan samarali muloqot qilish uchun ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishlari mumkinligini taklif qiladi. Ushbu rivojlanish turli madaniyatlarga ta'sir qilish, ta'lim, o'z-o'zini aks ettirish va madaniyatlararo aloqani yaxshilash uchun qasddan qilingan harakatlar orqali sodir bo'ladi. Ushbu nazariyaning maqsadi turli madaniyatlarda o'zaro tushunish, hurmat va hamdardlikni targ'ib qilishdir, bu esa oxir-oqibat munosabatlarni yaxshilashga va guruhlararo uyg'unlikka olib kelishi mumkin.

References:

1. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari. «O'zbekiston tarixi» jurnali. 2002 y. №4
2. Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent, 2001. 19-bet



3. Yakubovskiy A.Yu. O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida. -Toshkent. 1941.
4. Xo'jayev A. Qadimgi Xitoy manbalaridagi turkiy xalqlarga oid etnonimlar. «O'zbekiston o'rta asrlarda: tarix va madaniyat». – Toshkent, 2003. 178-184-betlar.
5. Asqarov A. Mustaqillik yilarida tarix, arxeologiya va etnologiya. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. 1996.